



THE CONTENT AND METHODS OF PREPARING CHILDREN WITH DYSARTHRIA SPEECH IMPAIRMENT FOR LITERACY

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

Acting Professor of the Department of Special Pedagogy, Ph.D.

Esonaliyeva Dildorabonu Adxamjon qizi

Master of Speech Therapy

Abstract

This article covers the content, tasks and effective methods of preparing children with dysarthria speech impairment for literacy. Due to disorders in the functioning of the speech apparatus, children with dysarthria have difficulties in sound pronunciation, phonemic perception, speech breathing and articulatory movements. Therefore, in the process of preparing for literacy, special attention is paid to corrective speech therapy work, articulatory exercises, the development of phonemic hearing, and the improvement of lexical and grammatical aspects of speech. The study analyzes effective pedagogical and speech therapy methods for preparing children for literacy.

Keywords: Dysarthria, literacy preparation, speech impairment, phonemic perception, articulation gymnastics, sound pronunciation, speech therapy correction, speech development, lexical and grammatical skills, special education.

Introduction

Annotatsiya

Mazkur maqolada dizartriya nutq nuqsoniga ega bolalarni savod o'rganishga tayyorlashning mazmuni, vazifalari va samarali usullari yoritilgan. Dizartriyali bolalarda nutq apparati faoliyatidagi buzilishlar tufayli tovush talaffuzi, fonematik idrok, nutqiy nafas va artikulyatsion harakatlarda qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu sababli savodga tayyorlash jarayonida korreksion-logopedik ishlar, artikulyatsion mashqlar, fonematik eshituvni rivojlantirish hamda nutqning leksik-grammatik tomonlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda bolalarni savodga tayyorlashning samarali pedagogik va logopedik usullari tahlil qilinadi.



Kalit soʻzlar: dizartriya, savodga tayyorlash, nutq nuqsoni, fonematik idrok, artikulyatsion gimnastika, tovush talaffuzi, logopedik korreksiya, nutq rivojlanishi, leksik-grammatik koʻnikmalar, maxsus taʼlim.

Fonematik idrokn rivojlantirish logopedik ishning dastlabki bosqichlaridan boshlanib, korreksion taʼsir metodlarining tarkibiy qismi hisoblanadi . Bu yerda bolalarning fonematik eshituvini rivojlantirishga oid taklif etilayotgan oʻyin va mashqlarni frontal, kichik guruhli va yakka logopedic mashgʻulotlarda olib borilishi mumkin. Bu ish nutqiy boʻlmagan tovushlardan boshlanib, asta sekin bolalar tomonidan toʻgʻri talaffuz etiladigan nutqiy tovushlarga oʻtiladi . Soʻng nutqqa qayta qoʻyiladigan yoki toʻgʻrilanadigan va mustaqil nutqga kiritiladigan tovushlar bilan yakunlanadi .

Birinchi mashgʻulotlardan oq bir vaqtning oʻzida eshituv diqqati va eshituv xotirasini rivojlantirishga doir ish olib boriladi. Bu fonematik idrokn rivojlantirishda nisbatan samarali va yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Bolalarda fonemalarni farqlash qobiliyatini rivojlantirishga doir logopedikishni shartli ravishda etti bosqich boʻyicha oʻtkazishni tavsiya etiladi:

- Nutq kamchiliklarni bartaraf etish;
- Nutqiy boʻlmagan tovushlarni anglash;
- Bir xil soʻz, jumla, tovush birikmalarini va jumalarni farqlash;
- Tovushlarning tarkibiga koʻra soʻzlar oʻz ichida tovushlarni farqlash;
- Boʻgʻinlarni ajratish. Yaʼni differensatsiyalash;
- Fonemalarni ajratish, differensatsiyalash;
- Tovushlarni analiz etish, elementar oʻqish va yozish malakalarini shakllantirish.

Taniqli psixolog L.S. Vigotskiy bolaning aniq rivojlanish bosqichidagi psixik funksiyalari etilish darajasiga etgandagina savodga oʻrgatish zarurligini aytib oʻtgan . Uning fikricha , savodga oʻrgatishda samarali natijaga erishish uchun bolaning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini: mantiqiy fikrlashi ,idroki , nutqi , xotirasining darajalarini hisobga olish muhimdir. Shu bilan birga bolaning nutqiy eshitishi va koʻruv xotirasi etarlicha rivojlangan boʻlishi kerak .

Savodga oʻrgatishda tovushlar metodi kamchilikka ega boʻlganidek , oʻz xususiyatiga ham ega: diqqat koʻproq tovushlar talaffuzi va tovushlar analiziga qaratilgan edi, lekin oʻqish jarayoniga oʻrgatish usuli berilmas edi .



1962-yilda D.B.Elkonin o`qishga o`rgatishning yangi metodikasini ishlab chiqdi. Uning fikricha o`qishga o`rgatish jarayoni tilning tovushlar tomoniga asoslanadi va 2 ta o`zaro chambarchas bog`liq bosqichlaridan tashkil topadi .

1- bosqich: harflar bilan bildiruvchi , unli fonemalar asosiy tizimi , unli fonemalar va harflarni chamalashni shakllantirish ;

2- bosqich: harflar bilan bildiruvchi undoshfonemalar asosiy tizimi , so`z va bo`g`inlarni , tovushlar formasini tuzish , o`qish mexanizmini

Shuningdek, Elkoninning metodikasi ham aqliy faoliyatni egallash usuli bilan bolalarni-tovushlarni analiz qilishga, butun alifboni tartib bilan o`qishga qaratiladi, o`qishni shakllantirishda qator bosqichlar kuzatib boriladi.

Savodga o`rgatish davrida bolaning aqliy rivojlanishi intensiv ravishda rivojlanadi, o`qish faollitishakllanadi. Buning natijasida bola xech qanday qiyinchiliksiz, maktab o`quv jarayoniga kirishib ketadi.

Savodgatayyorlash metodikasi nutqida nuqsoni bo`lmagan bolalarni o`qitishga yo`naltirilgan. Dizatriya nutq nuqsoniga ega maktabgacha yoshdagibolalarni savodga o`rgatishda maxsus metodika talab etiladi.

Nutqirivojlanmagan,nutqidakamchiligiborbolalarnisavodga tayyorlashning o`ziga xos xususiyatini ko`rib chiqamiz.

- o`qitishfaqatto`g`ritalaffuzetiladigan so`zvatovushlarustidaolibboriladi (savodga o`rgatish talaffuzga o`rgatish davomida);
- tovushlarni o`rganish tartibi va xarflarni nutqida nuqsoni bo`lmagan bolalarni savodga tayyorlash metodikasi bilan farqlab - a, u, o, m, x, -j,v,i,t,l,sh,r,jundostovushlar,affrikatovushlartaklifqiladi;
- so`z tarkibidatovush-harfmalakalarinieallashtezshakllanadi;
- nutqiy material nisimatiktarzda qaytarish va mustaxkamlash ro`y beradi;
- o`rganilayotgan tovush va xarf bilan parallel ravishda grammatika va orfografiyaning elementar qoidalari egallab boriladi;
- xuddi o`sha tovush va harf o`rganiladi;

L.Muminova va M. Ayupova sistemasi bo`yicha savodga o`rgatish: 2 davrga bo`linadi: tayyorgarlik va alifbo davri.

Tayyorgarlik davri. Nutqning umumiy rivojlanishi va talaffuzni shakllantirish (talaffuzni korreksiyalash, lug`atni boyitish, grammatika qurilmanie gallashtirish, sodda gap tuzish).



Alifbodavri.4bosqichgabo`linadi:

1- bosqichningvazifasi:

- a,u,m,x,o,p,k,s,n,v,t,xtovushlarinio`rganish;
- artikulyasiyani ko`ribqabulqilish;
- bo`g`in tizimini egallash;
- keyingikeladiganso`zlarnianalizqilish;
- qirqmaalifbodanso`z tuzish;
- unli va undosh, tovush va harflarni

ajratish; 2-bosqichning vazifasi:

- sh,r,z,j,ch,etovushlarinio`rganish;
- undoshtovushlarnito`g`riyozish;
- so`zdagitovushlartahlilivatarkibiustidaishlash;
- bug`indanso`ztuzish;
- og`zakiaytilganso`zni,gapniyozish;
- so`zlarnikeyingaqatorgako`chirish;

3-bosqichning vazifasi:

- i,e,yu,ya,xarflarinio`rganish;
- yharfiningyakuniyholati;
- ayrishbelgisinito`g`riqo`yish;
- o`qilganmatnritushunish;
- eshituvvako`ruvdiktanti.

3- bosqichningvazifasi:

- j,chjarangliundoshharflarnio`rganish;
- jarangliundoshtovushlarnianiqlashvafarqlash;
- so`znito`liqo`qish;
- yozilishivatalaffuzibilanbir-birigayaqinso`zlarniajratish;

berilgan tizim nutqi rivojlanmagan kichik maktab yoshidagi bolalargataxminiyl qilib olingan. Lekin maktabgacha yoshdagi nutqi rivojlanmagan bolalarni korreksion o`qitish jarayoni bir xil muvaffaqiyatli qabul qilingan (nutqi to`liq rivojlanmaganligining III darajasi).

Umumta`lim maktablarida tovush-harf belgilarini egallash jarayoni butun alifbegacha va alifbe davri davomida amalga oshadi. O`qishni egallash jarayoni tovush-xarf metodiga ko`ra analitik tovush metodi, sintetik tovush metodi va analitik-sintetik metodlariga bulib olib boriladi.



Analitik tovush metodida o`qilishi va yozilishi zarur bo`lgan tovush va harflarga bo`linib, analiz qilinadi, so`z tarkibidagi yangi o`rganilgan tovush-harf ajratib olinadi.

Sintetik tovush metodi asosida olib boriladigan ish tovush va harflardan boshlanadi, o`qiladigan yoki yoziladigan so`zlarning tovush-harflari qo`shiladi, ya`ni sintezlanadi.

Respublikamizdagi barcha maktablarda bolalarga o`qish va yozishni o`rgatishning bosh usuli sifatida analitik-sintetik tovush metodi qabul qilingandir. Bu metod bolalarni quruq yodlab olishdan saqlaydi, bolalarning ongli o`qishini ta`minlayli. Bolalartovush-harfbelgilarinie gallashtavridaberilgangaplarni analiz qilishadi. so`zlarni bo`g`inlarga bo`lib, bo`g`inlarni tovushlarga bo`lishali. Nutqdan tovushni ajratib olib, bola uni grafik ifodasi bilan solishtiradi. ya`ni tovushni harf bilan solishtiradi.

Bugungi kun talabi ta`limni isloh qilish, unga yangiliklar kiritish, ta`lim jarayonidabirxillikdanuzoqlashib,zamonaviyinnovatsiontexnologiyalar, interfaol metodlar hamda didktik materialatdan keng foydalanish bo`lmoqda. Shuni inobatga olgan holda biz, og`ir nutq nuqsoniga ega bo`lganbolalarni savodga tayyorlash jarayoning muhim vazifalaridan biri fonematik idrokini rivojlantirishda ta`limiy tajriba-sinov ishimizda zamonaviy innovatsion texnologiyalar AKT(axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) dan foydalandik. Biz buni ikki bosqichda amalga oshirdik, bunda mobil qurilma yordamida bolalarga avval tanish hayvonlar (mushuk, kuchuk, sigir, xo`roz va h.k) ovozi qo`yib eshittirildi.